

QURILISH KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI SAMARALI JORIY ETISH YO'LLARI

**Saidaxmedova Dilafruz Saidbaxromovna– JizPI, “Iqtisodiyot va
menejment” kafedrası dotsenti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy etishning ahamiyati, bosqichlari hamda uni amalga oshirish jarayonida uchraydigan muammolari o'rganilgan. Maqolada qurilish korxonalarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish zarurligi asoslangan va sifat menejmenti tizimini samarali joriy etishning tamoyillari taklif etilgan.

Kalit so'zlar. Qurilish, sifat, sifat menejmenti, tizim, ISO 9001, boshqaruv, tamoyillar, samaradorlik.

ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

**Саидахмедова Дилафруз Саидбахромовна - доцент кафедры "Экономика
и менеджмент" ДжизПИ**

Аннотация. В данной статье изучены значение, этапы внедрения системы менеджмента качества на строительных предприятиях и проблемы, возникающие в процессе ее реализации. В статье обоснована необходимость совершенствования управленческой деятельности строительных предприятий и предложены принципы эффективного внедрения системы менеджмента качества.

Ключевые слова. Строительство, качество, менеджмент качества, система, ISO 9001, управление, принципы, эффективность.

WAYS TO EFFECTIVELY IMPLEMENT A QUALITY MANAGEMENT SYSTEM IN CONSTRUCTION ENTERPRISES

**Saidakhmedova Dilafruz Saidbakhromovna - JizPI, Associate Professor of the
Department of "Economics and Management"**

Annotation. This article examines the importance of implementing a quality management system at construction companies, the stages of its implementation and the problems that arise in the process. It substantiates the need to improve the management activities of construction companies and proposes principles for the effective implementation of a quality management system.

Key words: Construction, quality, quality management, system, ISO 9001, management, principles, efficiency.

Qurilish sohasi har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki infratuzilmani barpo etish, aholi turmush darajasini yaxshilash va xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, zamonaviy shaharsozlik va sanoat infratuzilmasi talablarining ortib borishi qurilish sifatiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Har bir qurilish loyihasining yuqori sifatli, xavfsiz va uzoq muddatli ekspluatatsiyaga yaroqli bo'lishi, zamon talablariga javob beradigan tarzda tashkil etilishi zarur. Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali yo'lga qo'yish va tizimli boshqaruv asosida tashkil etish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi, mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, buyurtmachilar talabini qondirish hamda umumiy sifat darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimi joriy etilganligi asosan, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) sertifikatini mavjudligi bilan baholanadi. ISO 9001 sifat tizimlarini boshqarish uchun ishlatiladigan eng keng tarqalgan standart hisoblanadi. Lekin, qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini baholash uchun sertifikatning mavjudligi yetarli emas, balki kompleks yondashuv asosida bu jarayonni to'g'ri tashkil etish talab etiladi.

Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Korxonada sifatni boshqarishni tashkil etilganligining mavjud holati o'rganiladi. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud hujjatlarning sifat menejmenti tizimi talablariga muvofiqligi baholanadi.

2. Aniqlangan asosiy kamchiliklar va yutuqlar asosida, sifat menejmenti tizimining tuzilishi va uni amalga oshirishning optimal yondashuvi ishlab chiqiladi.

3. Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish amalga oshiriladi, bunda tegishli faoliyat turlari va ish jarayonlari rasmiylashtiriladi.

4. Sifat bo'yicha qo'llanma ishlab chiqiladi. U sifat sohasidagi maqsad va vazifalarni, sifat menejmenti tizimining asosiy elementlarini, shuningdek, talablarni bajarish tartibini belgilab beradi.

5. Sifat menejmenti tizimini joriy etishda korxona xodimlarining bevosita ishtirok etishlari ta'minlanadi. Joriy qilingan tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun xodimlar barcha hujjatlarni o'rganishlari va unga amal qilishlari shart.

6. Korxonada sifat menejmenti tizimini joriy etish amalga oshiriladi. Bunda ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va tahlil qilish amalga oshiriladi.

7. Korxona sertifikatlashtirish organiga sifat menejmenti bo'yicha kerakli hujjatlarni taqdim etadi. Tekshiruv davomida kamchiliklar, xatolar yoki boshqa izohlar aniqlansa, ular tuzatiladi, shundan so'ng, sifat menejmenti tizimini sertifikatlash mumkin bo'ladi.

Biroq, bu bosqichlar har doim ham sifatli tashkil etilmaydi. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, qurilish sohasida sifat menejmenti tizimini joriy etish bilan bog'liq qator muammolar uchraydi:

- boshqaruv xodimlarining ishchilarni qo'llab quvvatlamasligi, jamoada motivatsion muhitning yo'qligi;
- sifatni boshqarish tizimini noto'g'ri tashkil etilganligi;
- sifat menejmenti tizimidagi o'zining rolini bo'ysinuvchilarga o'tkazish holati;

- xodimlarning yangilikka va o‘zgarishlarga qarshiligi;
- boshqa tashkilotlarning hujjatlashtirishlaridan “nusxa” olish;
- kommunikatsiya jarayonlarining sifatsizligi;
- zaruriy resurslarning yetishmasligi,
- boshqaruv jarayonidagi nomuvofiqliklar va samaradorlikni noto‘g‘ri baholash kabilar.

Bu o‘z navbatida, qurilish korxonalarida asosan boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq muammolarning mavjudligini va uni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- xodimlarning samaradorligi oshadi. Korxona xodimlari doimiy ravishda o‘z malakalarini oshirib boradilar, barcha ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etiladi, vazifalar taqsimoti nazoratga olinadi, resurslardan oqilona foydalaniladi.
- o‘zgaruvchan raqobat muhiti sharoitida korxonaning faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlar doimiy ravishda takomillashtirishga qaratiladi.
- yetkazib beruvchilar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatiladi va ishlab chiqarish barqarorligi ta‘minlanadi.
- sifat menejmenti tizimi boshqa yirik tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, ma‘lum sohada yetakchi o‘rinni egallash va o‘zini ishonchli hamkor sifatida ko‘rsatish imkonini beradi.

Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish samaradorligi bir qancha omillarga, jumladan:

- rahbarning boshqaruvchilik qobiliyati;
- boshqaruv apparatining o‘zgarishlarga tayyorligi;
- xodimlarning boshqaruvdagi ishtiroki,
- korxonaning aniq strategiyasi mavjudligi,
- boshqaruv jarayonining resurslar bilan ta‘minlanganligi;
- audit va takomillashtirish jarayonlariga tizimli yondashish va shu kabilarga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, sifat menejmenti tizimini samarali joriy etishda rahbar va uning boshqaruv uslubining o'zni beqiyos. Shuningdek, sifat menejmenti tizimini joriy etishda menejment texnologiyasidan unumli foydalanish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, aniq ishlab chiqilgan boshqaruv tamoyillariga rioya qilish, boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki, har qanday umumiy maqsadlarga erishish yo'lida yechiladigan masalalarni rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishda barcha uchun umumiy hisoblangan hatti-harakatlarning yo'nalishi, qoidalari ishlab chiqarilgan bo'lishi zarur. Ma'lumki, bu menejmentda boshqaruv tamoyillari deyiladi [2].

Shu nuqtai nazardan, qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali joriy etishda quyidagi tamoyillarni ishlab chiqish taklif etiladi:

1. Sifat menejmenti tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirishda boshqaruvning barcha darajasini faol ishtirokini ta'minlash va ularni qo'llab-quvvatlash.
2. Xodimlarni jalb qilish va o'qitish, ya'ni barcha xodimlar bu jarayonda ishtirok etishlari, o'zlarining roli va mas'uliyatini tushunish uchun ularni sifat menejmenti tizimi talablari bo'yicha o'qitishni tashkil etish.
3. Zaruriy moliyaviy, moddiy, mehnat resurslarni to'g'ri taqsimlagan holda sifat menejmenti tizimini amalga oshirishning puxta o'ylangan strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Saidahmedova, D. S., & Valixanova, M. (2023). QURILISH KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY QILISH-DAVR TALABI. *Экономика и социум*, (5-2 (108)), 330-334.
2. Saidaxmedova, D. S. (2023). Menejmentga kirish. *praktikum*). *Darslik*. "JizPI tipografiyasi" nashriyoti.
3. Saidahmedova, D. S., Rabbimov I. Mahsulot sifatni boshqarishning zamonaviy uslublari. "Экономика и социум" №3(118) 2024.

4. Управление качеством в строительных организациях : учеб. пособие /Н.Т. Мазаник, Б.М. Басин. – Хабаровск : Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2012. – 154 с.